



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 164 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi.....	28
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish	34
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning	37
Burkhonova Zarafuz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich	
The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition.....	40
Dilorom Poyonova	
Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish	45
Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna	
Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture.....	49
Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	52
Makhmudova Ugliy Baxtiyarovna	
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish	57
Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinova	
Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish.....	61
Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish	65
Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi	
An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms	68
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna	
The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs	71
Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna	
Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish	74
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi	
Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish	77
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi	
O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi	80
Sh. F. Mustafayeva	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	85
Turayev Alimjan Bahriddinovich	
The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development.....	88
Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina	
A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning.....	91
Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich	
Modern Education and Training Practices for Future Dentists	94
Turumova Marjona Bahodirovna	
Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish.....	98
Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna	



Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari	102
<i>Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari	106
<i>Xoldarova Mubina Qudratbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari	110
<i>Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi</i>	
Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков	114
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры	118
<i>Мукимов Олим Эргашевич</i>	
Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework	122
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich</i>	
Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта	125
<i>Хужаниязова Гузаль Юлдашевна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish	130
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar	133
<i>Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi</i>	
Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida.....	138
<i>Rustamova Ma'mura Asqar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish	141
<i>Shorustamboyeva Shahnoza Ulug'bekovna</i>	
The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language	144
<i>Tursunoy Ortiqova</i>	
Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili	149
<i>Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash ..	153
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	156
<i>Murtazayeva Nasiba Komiljonovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish	159
<i>Xusnidinova Saodat</i>	

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KREATIV FAOLIYATINI XALQ OG'ZAKI IJODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Abduraximova Muxabbat Allayevna

Termiz davlat pedagogika instituti
"Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalaridan (ertak, maqol, topishmoq, afsona) foydalanishga asoslangan innovatsion pedagogik texnologiyalar ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy fikrlash, mustaqil yondashuv va pedagogik kompetensiyalarining oshganini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: kreativlik, xalq og'zaki ijodi, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, metodika, bo'lajak o'qituvchi.

Abstract: This article discusses the issues of improving the methodology of using folk oral literature in the development of creative activities of future primary school teachers. In the course of the research, innovative pedagogical technologies based on the use of folk oral literature (fairytale, proverbs, riddles, legends) were developed and tested in practice. The results of the research showed an increase in the creative thinking, independent approach, and pedagogical competencies of future teachers.

Key words: creativity, folk oral literature, primary education, pedagogical technology, methodology, future teacher.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики использования народной устной литературы в развитии творческой деятельности будущих учителей начальной школы. В ходе исследования были разработаны и апробированы на практике инновационные педагогические технологии, основанные на использовании народной устной литературы (сказки, пословицы, загадки, легенды). Результаты исследования показали повышение уровня творческого мышления, самостоятельности и педагогических компетенций будущих учителей.

Ключевые слова: творчество, народная устная литература, начальное образование, педагогические технологии, методика, будущий учитель.

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning kreativ faoliyatini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish, kasbiy faoliyatga innovatsion yondashuvni rivojlantirish hamda milliy-madaniy qadriyatlarga tayangan pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi ^[6]. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirishga qaratilgan o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lashga yo'naltirilgan bo'lib, ularning kreativlik salohiyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi.

Texnologik yondashuvning asosini shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy hamda faoliyatga asoslangan ta'lim yondashuvlari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar asosida ta'lim jarayoni interfaol, muammoli va ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan holda tashkil etiladi. Takomillashtirilgan o'qitish texnologiyalarida xalq og'zaki ijodining ertak, maqol, matal, topishmoq, afsona va doston kabi janrlari ta'lim mazmuniga integratsiyalashgan holda qo'llaniladi ^[5]. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilar xalq og'zaki ijodi namunalarini tahlil qilish, ularni didaktik jihatdan qayta ishlash hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga moslashtirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egalaydi ^[1]. Natijada ularning pedagogik tafakkuri, ijodiy yondashuvi va metodik kompetensiyalari izchil rivojlanadi.



Ushbu texnologiyalarni amalga oshirish jarayonida muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, ijodiy topshiriqlar, refleksiv mashg'ulotlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'zda tutiladi. Mazkur metod va vositalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ta'lim jarayonida mustaqil fikrlash, ijodiy qaror qabul qilish va pedagogik vaziyatlarga moslashuvchan yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Texnologiyalarni qo'llash natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyati motivatsion, kognitiv va amaliy ko'rsatkichlar asosida rivojlanib, ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatida xalq og'zaki ijodidan samarali foydalanish imkoniyatlari kengayadi ^[2]. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bo'lajak o'qituvchilardan nafaqat puxta bilim, balki yuqori darajadagi kreativ faoliyatni ham talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchining ijodkorligi o'quvchilarning tafakkuri, nutqi va shaxsiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi o'zining tarbiyaviy, estetik va didaktik imkoniyatlari bilan boshlang'ich ta'lim uchun muhim manba hisoblanadi. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar va rivoyatlar o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish bilan birga, milliy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, xalq og'zaki ijodidan foydalanish o'qituvchining pedagogik faoliyatida kreativ yondashuvni kuchaytiradi ^[3]. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning maqsadi – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish hamda samarali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- nazariy tahlil – pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish;
- pedagogik kuzatuv – bo'lajak o'qituvchilarning o'quv jarayonidagi kreativ faolligini aniqlash;
- eksperiment – xalq og'zaki ijodiga asoslangan mashg'ulotlarni amaliyotga joriy etish;
- so'rovnomalar va testlar – talabalarning kreativlik darajasini baholash;
- statistik tahlil – olingan natijalarni umumlashtirish.

Tajriba-sinov ishlari pedagogika oliy ta'lim muassasasining "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" yo'nalishida tahsil olayotgan 2–3-bosqich talabalari ishtirokida olib borildi. Eksperimental guruhda xalq og'zaki ijodiga asoslangan kreativ mashg'ulotlar tizimli ravishda tashkil etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy metodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodiga asoslangan pedagogik texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarning kreativ faoliyatini sezilarli darajada oshirdi. Xususan, talabalarning ijodiy fikrlash darajasi 27–30 % ga oshdi, mustaqil dars ishlanmalari tuzish ko'nikmalari rivojlandi, pedagogik vaziyatlarga kreativ yondashish qobiliyati shakllandi hamda milliy-ma'naviy qadriyatlarga qiziqish kuchaydi. Eksperimental guruh talabalarining dars jarayonida ertak asosida ssenariy tuzish, maqollardan foydalangan holda muammoli vaziyatlar yaratish kabi faoliyatlari yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodidan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy izlanishlar bilan hamohang bo'lib, xalq og'zaki ijodining pedagogik imkoniyatlarini tasdiqlaydi ^[4].

Takomillashtirilgan metodika bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi va ularni zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv boshlang'ich ta'limda milliylik va innovatsionlik uyg'unligini ta'minlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar o'qituvchilarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda samarali ekanligi isbotlandi. Mazkur tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta'lim muassasalarida metodik qo'llanma sifatida foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduraximova M.A. Xalq pedagogikasi. – Termiz, 2025.
2. Abduraximova M.A. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodidan foydalanib o'qitish uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy-metodik qo'llanma va tavsiyalar. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2024. – 28 b.
3. Jo'raev R.X. Pedagogik texnologiyalar va kreativ ta'lim. – Toshkent: Fan, 2020.
4. Qodirov A.A. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Karimova M.M. Xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent, 2018.
6. Shodiev N.Sh. Kreativ pedagogika asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.